

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

_____ 2021 yil
“ ”

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R.I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

**5A410203 – ORGANIK DEHQONCHILIK VA OZIQ-OVQAT
XAVFSIZLIGI**

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand-2021

Annotatsiya:

Dastur 5A410203 – Organik dehqonchilik va oziq-ovqat xavfsizligi magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5410200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha), 5412200-Organik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta‘lim yo‘nalishlarining 2017-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

TUZUVChILAR:

Abduraximov M.K. - SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

Dastur Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi fakultetining 2021 yil 28 iyundagi № 14 sonli kengash yig‘ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

KIRISH

5410200 - Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi - qishloq xo'jaligi sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, u yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda zamonaviy resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qo'llash; - qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini maqbullashtirish; - qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va yetishtirilayotgan mahsulot sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida ishlab chiqarish vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassislikning vazifasi – talabalar bilimni chuqurlashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va mahsulot sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslari, dala ekinlari va ularning navlari, urug'lari kimyoviy va biologik vositalar, texnik asbob- uskunalar, qishloq xujalik texnikalari, agrotexnik gadbirlar; dehqonchilikda kullaniladigan agrotexnik jarayonlar, dala ekinlarini yetishtirish texnologiyasidan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'idagi fan va ishlab chiqarish; dehqonchilikda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish; o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarda maxsus fanlarni o'qitishni tashkillashtirish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iborat

5410200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha) bakalvriat ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A410203 – Organik dehqonchilik va oziq-ovqat xavfsizligi magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari: dehqonchilik, melioratsiya va yer tuzish, o'simlikshunoslik, paxtachilik, ekinlarni sug'orish va sug'orish tizimlari bo'yicha test savollari shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

DEHQONCHILIK

fani bo'yicha:

“Dehqonchilik” fanida dehqonchilikning nazariy asoslarini, asosiy qonunlarini, yerlardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarga ishlov berish, begona o'tlarga qarshi kurash, almashlab ekishni, eksperimentlarni loyihalashtirish, o'tkazish va eng yaxshi agrotexnik usullarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni o'rgatish hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Respublika dehqonchiligining hozirgi holati, muammolar va ularni hal qilish yo'llari. Dehqonchilik fanining rivojlanish tarixi. Dehqonchilikni rivojlanishida hissa qo'shgan olimlarning roli. Tuproq unumdorligi haqida tushuncha. Tabiiy, sun'iy, potensial va samarali unumdorlik tushunchalari. Tuproq unumdorligini oshirish usullari. Tuproq madaniyligi. Tuproqni madaniylashtirishning agrofizikaviy, agrokimyoviy va biologik usullari. Tuproqdagi organik moddalar va ularning o'simliklar hayotidagi o'rni. madaniy o'simliklarning yorug'lik, harorat, havo, oziq va suvga bo'lgan talabini o'rganadi. O'simliklarning hayot omillariga talablarini va dehqonchilik qonunlarini o'zlashtirib oladi. Dehqonchilikning minimum (minimum, optimum, maksimum), hayot omillarini birgalikda ta'sir etishi. Tuproqdan olingan moddalarni qaytarish, hayot omillarining teng ahamiyatligi va bir-birini almashtira olmaslik qonunlari va ularning dehqonchilikdagi ahamiyati.

MELIORASIYA VA YER TUZISH

fani bo'yicha

Ushbu fan respublikamizda agrar sohada erishgan yutuqlari va iqtisodiy samaradorligi hamda qishloq xo'jaligini kelajakda rivojlanishi qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni ma'no-mazmunini, melioratsiya va yer tuzish fanining ahamiyatini, qonunlarini, yerlarning meliorativ holatini boshqarish tizimini, yer va suvdan foydalanish bo'yicha xuquqiy va me'yoriy xujjatlar xaqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida yangi agrar islohotlarni amalga oshirish va melioratsiyani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar va qonunlar, respublikamizda mintaqalar bo'yicha tuproqlarning sho'rlanish turlari, xarakteri va darajasi, tuproqning tuz rejimi, sizot suvlari rejimi, balansi va uni boshqarish yo'llari, sho'rlangan yerlarda zovurlar, ularning turlari va vazifasi, yer va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, yer tuzish tushunchasi, mazmuni va vazifasi, Yer tuzish jarayoni, harakati va turlari, ilmiy asoslangan meliorativ tadbirlar tizimini qo'llash. tuproqlarning sho'rlanganlik darajasini o'lchovchi asbob-uskunalarni, sug'oriladigan Yerlarni sho'rlanishi, botqoqlanishi va suv, shamol, irrigatsiya eroziyalarini oldini olish va qarshi kurash tadbirlarini, kollektor-zovur tarmog'i turlarini va ulardan samarali foydalanishni, qishloq xo'jalik plan va kartalarining mazmunini o'qishni, xo'jalik planining masshtabi va ulardan foydalanishni.

Berilgan rumb burchagi va chiziq uzunligi bo'yicha plan chizishni, Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish tamoyillarini, xo'jalik yer tuzish loyihasini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish tartibini, xo'jaliklararo yer tuzish maqsadi, vazifalari va tartibi. tuproqning sho'rlanishi va

botqoqlanishini hamda tuproq eroziyasini oldini olish va qarshi ko‘rashda eng samarali tadbirlar, ilmiy asoslangan meliorativ tadbirlar, tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirib borish, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori, sifatli, arzon mahsulotlar etishtirish, yer maydonini kartada hisoblash va dalada o‘lchash, asosiy geodezik asboblardan bilan yer maydonini s‘yomka qilish qilish usullarini o‘rganish kabi muhim nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi.

O‘SIMLIKSHUNOSLIK

fani bo‘yicha:

O‘simlikshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad – o‘simlikshunoslikning ilmiy asoslarini; rivojlanish tarixini; madaniy ekinlarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va ularni rayonlashtirishni; biologik xususiyatlarini; etishtirish va yig‘ib-terib olish usullarini; istiqbolli turlari va navlarini; agrotexnikasi va ekish texnologiyasini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiriq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

O‘simlikshunoslik fanining rivojlanish tarixi o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorlik. O‘simlikshunoslik fanining tadqiqot usullari. Madaniy o‘simliklar va ularning kelib chiqishi. Madaniy o‘simliklarning tasnifi. Urug‘larni ekishga tayyorlash va saqlash, madaniy o‘simliklar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni o‘rganadi. Madaniy o‘simliklarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, tashqi muhitga talabi, morfologiyefsi, biologiyasi, sistematikasi, yuqori hosilni ta‘minlaydigan zamonaviy ilg‘or agrotexnologiyalar, dala ekinlarini etishtirishda muqobil yangi navlarni tanlash. o‘tmishdosh ekinlarni tanlash va ularni ekish uchun tayyorlash. Mineral o‘g‘itlarni ekinlar uchun tanlash kabi bilimlarni qamrab oladi. Donli ekinlar, yem-xashak o‘tlar, ildizmevalilar va tuganakmevalilar, moyli ekinlar, tolali ekinlar va tamakining ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasini o‘rganiladi.

PAXTACHILIK

fani bo‘yicha:

Paxtachilik fanining mazmuni, paxtaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, tashqi muhitga talabi, morfologiyasi, biologiyasi, sistematikasi, yuqori hosilni ta‘minlaydigan zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Fanning rivojlanishi, istiqboli va Respublikamizdagi iqtisodiy islohatlar bilan bog‘liqligi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda fanning ahamiyatini qamraydi. Fanni maqsadi - Fo‘za morfologiyasi, biologiyasi paxtachilik xo‘jaliklarida navbatlab ekish, yerni va chigitni ekishga tayyorlash hamda ekish, yagana kilish, va ko‘chat qalinligi, qator oralariga ishlov berish, g‘o‘zani sug‘orish, o‘g‘itlash va chilpish, g‘o‘za kasalliklari, zararkunandalari va

ularga qarshi kurash choralari, dalani terimga tayyorlash va terish. paxtachilikda fan yutuqlari va ilg'orlar tajribasini qo'llashni o'rganishdan iboratdir.

Paxtachilik fanini: paxta yetishtirish texnologiyasi ekologik toza mahsulot yetishtirish; paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati; paxtachilikning hozirgi holati va istiqboli haqida tasavvurga ega bo'lishi; tuproqqa ishlov berish; yerni ekishga tayyorlashni; yerni meliorativ holatini yaxshilash; g'o'zani o'sish, rivojlanish davrida resurslarni tejoychi texnologiyalarni qo'llash; g'o'za qator oralariga ishlov berish; begona o't, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash; mineral o'g'itlarni to'g'ri taqsimlashi; qishloq xo'jalik mashinalaridan, gerbitsidlardan foydalanish; g'o'zani oziqlantirish va sug'orish usullari va me'yori aniqlashni; rayonlashtirilgan g'o'za navlarini tavsifi; hosilni aniqlashni o'rganishdan iborat.

EKINLARNI SUG'ORISH VA SUG'ORISH TIZIMLARI

fani bo'yicha:

Ushbu fan ekinlarni suvga bulgan talabi, suv manbalari, sug'orish usullari, Sug'orishni rivojlantirish, uchun yer usti suvlarini rostlash va qo'shimcha suv manbalarini qidirish. Sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish va botqoqlanishni oldini olish hamda ularga qarshi kurash, qo'riq va bo'z tuproqlarni o'zlashtirish, sug'orish tizimlari va ularning turlari, sug'orish tizimlarida suv o'lchash, kollektor zovur tarmoqlari va ularning ahamiyati, suv tejoychi sug'orish usullari, sug'orish va zax qochirish inshootlaridan to'g'ri foydalanish, suvdan samarali tejab-tergab foydalanish, suv isrofgarchiligiga qarshi kurashish kabi tadbirlar bo'yicha va bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Farmatsevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom ashyosiga bo'lgan talabni qondirish, bevosita dorivor o'simliklarni me'yorda quritish, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi bilan bog'liq. Bunda yetishtirilgan maxsulotni tayyorlash, quritish va saqlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun maxsus malakalar talab etiladi. Dorivor o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni saqlab qolish, FS talablariga doir ma'lumotlar, xom ashyoni normativ me'yoriy hujjatlar asosida rasmiylashtirish kibi masalalarga e'tibor qaratilgan. Muzkur fanda xom ashyoni tayyorlash, saqlash va qayta ishlar masalalariga doir ma'lumotlar atroflicha bayon etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi

to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent- 2018 y. Darslik. 25.5 b.t. 407-b. Atabayeva X.H., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Toshkent Yangi asr avlodi, darslik, 2006 (180 bet).

3. Atabayeva X.N., Umarov Z. O'simlikshunoslik-praktikum, o'quv qo'llanma, T. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004 (160 bet).

4. Muxammadjonov M. Zokirov 3. «G'o'za agrotexnikasi» o'quv qo'llanma Toshkent 1995. (286 b).

5. Sulaymonov B.A.va boshkalar. Fermer xujaliklarida paxtachilikni rivojlantirishning innovatsion agrotexnologiyalari.fermerlar uchun ukuv kullannma Toshkent-2019 y ZDodirov. S. G'o'za agrotexnikasi Andijon 2001.

6. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2008 y., 420 b.

7. Abduraxmonov U.Z., Teshayev Sh.J., Teshayev F.J. G'o'za ko'saklarining fiziologik yetilishida defoliatsiyaning ta'siri. 2018y nashriyot, Navruz.

8. Teshayev Sh., Sulaymonov B. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016. 540 b. 7. Margaret J. McMahan, Anton m. Kofranek, Vincent E. Rubatzky "PLANT SCIENCE" growth, development, and utilization of cultivated plants" USA 2011 y. 8. Teshayev Sh., Xolikov B. va xammualiflar jamoasi. Uzbekiston Respublikasi viloyatlarida ekilayotgan guza navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi (xar bir viloyatlar uchun apoxida tavsianomalar chop etilgan). Toshkent 2016; 2017; 2018 yil.

9. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi". Toshkent. Sharq. 2008. -408 bet.

10. Raximbayev F.M., Xamidov M.X. "Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi". Tashkent. Mehnat. 1996. -328 bet.

11. Artukmetov Z.A., Sheraliyev X.Sh. "Ekinlarni sug'orish asoslari". Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN. 2006. -344 bet.

12. Kostyakov A.N. Osnovi melioratsiya, M.: Selxozgiz, 1960 g.-604 str.

13. Markov Ye.S. Selskoxozyaystvennie gidrotexnicheskiye melioratsii, M.: Kolos, 1981 g. - 376 str.

14. Azimbayev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari (Darslik). T. Iqtisodiyot-moliya 2006. - 180 b.

15. Ermatov A.K. Sug'oriladigan dehqonchilik. Darslik. T.: O'qituvchi 1983.-180 b.

16. Azimbayev S.A., Artukmetov Z.A., Sheraliyev X., Norkulov U., Shodmanov M. Umumiy dehqonchilik va melioratsiya asoslari. Kasb-hunar kollejlarning fermerlik yo‘nalishi uchun darslik. T.: Uzkomsentr. 2002. - 182 b.
17. Zaurov E.I. Dehqonchilikdan laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma T. O‘qituvchi, 1979. — 179 b.
18. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reyestriga 2007-2017 yillarda kiritilgan navlar va duragaylarnish tavsifi. Toshkent 2017. 377 b.
19. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat Reyestri. Toshkent-2018 y. 125 b.
20. Razzoqov L. O‘zbekiston paxtachiligi tarixi, Toshkent, 1994. 250 b
21. Yangi istiqbolli va rayonlashgan ularni yetishtirish agrotexnikasi. Toshkent-“Fan” 2013.76 b.
22. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar 2016-2020 yillar uchun. Toshkent, 2016, 1-qism.
23. Egamberdiyev A.E, Ibragimov Sh.E, Amonturdiyev A.B. “G‘o‘za seleksiyasi urug‘chiligi va biologiyasi” Toshkent “Fan”, 2009. 99 b (o‘quv qo‘llanma)
24. Abdullayev A.A. Gossypium L. turi atlas. Toshkent, “Fan” 2010.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	TEST - kompyuterda
Test yechish uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Test savollari soni	50
Har bir to`g`ri javob uchun ball	2
Maksimal ball	100
O`tish bali	55